

MAVZU ICHKI ISHLAR ORGANI FAOLIYATINI PSIXOLOGIK TA'MINLASH.MUAMMO VA YECHIMLAR.

IIV Akademiyasi 2-bosqich kursanti,safdor

Jamolov Firdavs Panji o'g'li

Annotatsiya:Ushbu maqola orqali siz,ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyatini shakllantirish,muomala madaniyati,yurish-turish qoidalari,psixologik faoliyatining shakllanishi hamda har bir xodim amal qilishi kerak bo'lgan majburiyatlar keltirilgan.

Kalit so'z; psixologik shakllar,etika va estetika,psixologik portret,tizim,profesionalizm,kompleks ,strategiya.

Mamlakatimizda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini ta'minlash jarayonlari kundan-kun murakkablashib, yanada dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ushbu vazifalarni samarali bajarish jarayonlari ichki ishlar organlarining kadrlari bilan ishlash faoliyatiga bevosita bog'liqdir.

Tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, birinchidan, ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan asosiy va zamon talablari asosida qo'yilayotgan yangi vazifalarni samarali bajarilishini ta'minlay oladigan, ikkinchidan, xalqaro huquq nomalari bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar mansabdor shaxslariga, shuningdek milliy qonun talablari asosida davlat xizmatchisi, xususan, ichki ishlar organlari xodimlaridan yuksak ma'naviy, ahloqiy, kasbiy fazilatlarga ega bo'lgan professional mutaxassis kadrlar bo'lishni talab qiladi.

Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan 2023 yil 20 yanvar kuni qabul qilingan "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-

tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-sonli Qarori ham mazkur islohotlarning mantiqiy davomidir.

Ushbu Qarorda Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi tasdiqlangan. Har bir xodim mazkur kodeksda belgilangan qoida va talablarni bilishi, ularga qat'iy va so'zsiz amal qilishi majburiy etib belgilangan. Kodeks qoida va talablariga amal qilmaslik yoki ularni qo'pol ravishda buzish xodimni ichki ishlar organlaridan xizmatdan bo'shatishgacha bo'lgan intizomiy jazo chorasini qo'llash uchun acoc bo'ladi.

Ta'kidlanishicha, kodeksda belgilangan qoida va talablar ichki ishlar organlarida sodir etilishi mumkin bo'lgan nojo'ya xatti-harakatlar, suiiste'molchilik va korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olish, huquq-tartibot tizimi obro'yiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirmaslikka yo'naltirilgan. Xodimlar ishga qabul qilingan kundan, egallab turgan lavozimi hamda bajaradigan ishining xususiyatidan qat'i nazar ushbu kodeksga birday rioya etishga majburdir.

Bundan tashqari, ushbu Prezident qarori bilan IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti to'g'risidagi nizom, ichki ishlar organlarida kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning Yo'l xaritasi tasdiqlangan.

Davlat rahbari tomonidan "Ichki ishlar organlarini xalqchil tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror qabul qilinishi ortidan Prezidentning ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi belgilangan.

Shuningdek, Qarorda "2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi"ga muvofiq, ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatidagi kasbiy xalq tuzilmasiga aylantirish va qonun ustuvorligi, tinchlik va osoyishtalikni yanada mustahkamlash ko'zda tutilgan.

Shu bilan bir qatorda, hujjat bilan "Ichki ishlar organlari xodimlarining kasb madaniyati va xizmat intizomi to'g'risida"gi kodeksi tasdiqlandi. Bundan tashqari,

Ichki ishlar vazirligining Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash boshqarmasi to'g'risidagi nizom ham tasdiqlandi.

Unga ko'ra, Ichki ishlar vazirligida Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash boshqarmasi tashkil etilib, u ichki ishlar boshqarmasiga xizmatga nomzodlarni tanlash, tizimining shaffofligini ta'minlash, shaxsiy tarkib bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini raqamlashtirish bilan shug'ullanadi.

Umuman olganda, aytish mumkinki, ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muammolarini o'z vaqtida aniqlash va samarali hal etishga qodir bo'lgan, innovatsion rivojlanishning umumjahon tendensiyalariga javob beradigan ichki ishlar sohasidagi davlat boshqaruvi tizimi yaratilmoqda.

O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo'g'inini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar qilindi.

O'zbekistonda oliy qadriyat deb tan olingan inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari ta'minlanishini yanada mustahkam kafolatlash, ularning orzu-istaklarini ro'yobga chiqarish borasida fuqarolik jamiyati institutlarining ham o'rni beqiyos.

Mustaqillik, Konstitutsiya, fuqarolik jamiyati va demokratiya tushunchalari o'rtasidagi uzviy aloqadorlik muhim ahamiyatga ega. Zero, mustaqil mamlakatni demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati institutlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois yurtimizda istiqlolning ilk kunlaridanoq demokratik yangilanish, erkin fuqarolik jamiyatini qurish yo'li tanlab olindi. Binobarin, bu yo'lni har kim o'ziga xos yo'sinda bosib o'tadi. O'zbekiston demokratiyaning fundamental tamoyillariga asoslangan, ularga qat'iy rioya etgan holda, ayni paytda o'z harakatlarini xalqimizning tafakkuri, necha ming yillik turmush tarzi bilan muvofiq ravishda olib bormoqda.

Jamiyatda qonuniylik va huquqiy-tartibot fuqarolarning qonuniy xatti-harakati bilan barcha davlat organlari va jamoat birlashmalarining qonunlarga rioya qilishlari ulardan to'g'ri foydalanishlari bilan o'rnatiladi. Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish esa, inson huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo'lib, unda ichki ishlar organlari muhim o'rin egallaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ichki ishlar organlari qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish vazifasini amalga oshiradilar. O'z vakolatlaridagi ishlar bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradilar, tinchlik va insoniyat xavfsizligini ta'minlaydi. Ichki ishlar organlari vazifalarini amalga oshirishning muhimligi huquqiy davlatni shakllantirish va fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida yanada oshadi.

Ichki ishlar organlarida Tibbiyot boshqarmasi va markaziy muassasalari tizimida tibbiy psixologik xizmat muhim o'rin tutadi.

Psixologiya fanlarining muhim yo'nalishi sanalgan tibbiyot psixologiyasi, ayniqsa, bugungi kunda tobora takomillashib, rivojlanib bormoqda.

Jamoalarda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish uchun muayyan tadbirlar ishlab chiqilib, davolash-profilaktika muassasalarida psixoterapevtik mashg'ulotlar uyushtirilmoqda.

Ayni paytda psixologik xizmat amaliyoti, eng avvalo, insonga, uning salomatligiga yordam bera olishi bilan ham ahamiyatlidir. Chunki sog'lom ruhiyat ustuvorlik qilgan odamda hamisha o'z kasbiga, taraqqiyotga va hayotga bo'lgan ijobiy

munosabatlar bevosita namoyon etiladi. Natijada insonning o'z hayotidan mamnunligi ta'minlanadi. Bu esa uni yanada ko'proq intilishga chorlayveradi.

Ichki ishlar organlari tibbiyot sohasining tibbiy psixologiya yo'nalishida istiqbolda bir qancha ustuvor vazifalarni amalga oshirish muhimdir.

Jumladan, tibbiyot xodimlari va psixologlarning o'zaro integratsiyasini kuchaytirish va amaliy psixologlarni tayyorlash profilaktika muassasalariga kengroq jalb qilish, tibbiy psixologiya bo'yicha tegishli oliy ta'lim muassasalarining psixologiya kafedralari bilan hamkorlikda olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish, xorij davlatlari bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Viloyat tibbiyot bo'limlarida, shifoxonalarda davolanayotgan bemorlarga psixologlarni jalb etish orqali davolash samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

Shuningdek, barcha markaziy muassasa va shahar, viloyat tibbiyot bo'limlarida «Psixologik yordam xonalarini», «Tez tibbiy psixologik yordam ko'rsatish xizmati»ni tashkil etish, harbiy vaziyat va turli falokatli holatlarda yuqori malakali tibbiy psixologik yordam ko'rsatuvchi zaxiradagi ishchi-guruh faoliyatini yo'lga qo'yish, davolash-profilaktika muassasalari uchun zamon talablariga mos keladigan «Tibbiy psixologning kvalifikatsion xarakteristikasini yaratish» muhim sanaladi.

Psixologik ta'minlashning sifat jihatdan yangi tizimi

Bugun dunyoda yuzaga kelayotgan o'ta murakkab vaziyatda Vatanimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli ta'minlash yanada dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, mazkur vazifalarni bajaruvchi harbiy xizmatchi va xodimlarning psixologik tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ularning har qanday kutilmagan, xavfli vaziyatlarda ruhiy barqarorligini ta'minlash, jangovar shayligini oshirish, psixologik ta'minlashning sifat jihatdan yangi tizimini joriy qilish yuqoridagi maqsadlarga erishishning kafolati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimlarida ham mazkur yo'nalishda qator amalga chora-tadbirlar amalga oshirib kelinayotganini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonining "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyatini psixologik ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy

etish to'g'risida"gi buyrug'iga muvofiq Milliy gvardiya Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar boshqarmasi tasarrufida Milliy gvardiya faoliyatini psixologik ta'minlash, shaxsiy tarkib va ularning oila a'zolari bilan psixologik ishlarni muvofiqlashtirish hamda boshqarishni amalga oshiruvchi Psixologik ta'minlash markazi faoliyati yo'lga qo'yildi va uning vazifalari belgilandi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yilda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida qonunbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq 2000 shtat birligidan iborat ichki ishlar organlari voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar lavozimlari Milliy gvardiya tuzilmasiga o'tkazildi

Adabiyotlar:

1. IIV Akademiyasi Axborotnomasi. Toshkent-2018.
2. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar Vazirining 2021 –yil 21-oktyabrdagi 400-sonli buyrug'i.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 –yil 10-apreldagi PF-5005-son "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning ma'suliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.